

BOSHLANG‘ICH SINF MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH USULLARI

Xolboyeva Mahzuna

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi yo ‘nalishi
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, hayotiy muammolarni o‘zlari hal qilish usullari, ahamiyati va afzalliliklari yoritib berilgan. Bunda o‘qituvchining roli, o‘qitish usullari, o‘quvchilar bilan ishlash qoidalari ijodiy kreativ yondashuvlar orqali asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga yordam beruvchi 4K modeli orqali o‘qitish tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mustaqil fikr, 4K, bayon, tarqatma materiallar, darslik, kreativlik, mustaqil ta’lim.

Аннотация: В данной статье освещены способы, важность и преимущества самостоятельного мышления учащихся начальных классов, самостоятельного решения жизненных задач. При этом роль преподавателя, методы обучения, правила работы с учащимися обосновываются посредством творческих творческих подходов. Также в статье анализируется обучение посредством модели 4К, которая помогает учащимся мыслить самостоятельно.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, 4К, высказывание, раздаточный материал, учебник, творчество, самостоятельное обучение.

Abstract: This article highlights the importance and advantages of teaching primary school students to think independently and solve life problems on their own. In this, the role of the teacher, teaching methods, and rules for working with students are justified through creative approaches. The article also analyzes teaching using the 4K model, which helps students think independently.

Keywords: independent thinking, 4K, statement, handouts, textbook, creativity, independent learning.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimiga qo‘yiladigan talablardan biri rivojlanayotgan jamiyatda uchrashi mumkin bo‘lgan turli xil vaziyatlarda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, harakatchanlik, konstruktivlik bilan ajralib turadigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi¹.

¹ Abduraxmonova N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Educational Research in Universal Sciences., 2023. B. 208.

Bugungi ta'limning maqsadi esa – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya hisoblanib, u boshlang'ich ta'limning bosh mezoni sanaladi. Ta'lim umumiyligi o'rta ta'limning dastlabki bosqichi davlatimizda 1-4-sinflarni qamrab oladi. Unda ta'lim berish, ularni aqliy, ma'naviy, jismoniy kamol toptirishning dastlabki bosqichi sanaladi, ta'lim Davlat ta'lim standartida belgilangan maqsad orqali amalga oshiriladi.

Jahon miqyosida ta'lim tizimi tezkor o'zgarishlar va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar ta'limning maqsadlari va usullariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda ta'lim tizimining asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Mustaqil fikrlash – bu har qanday muammoni hal qilishda mustaqil ravishda xulosalar chiqarish, tanqidiy tahlil qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ma'lumotlarni samarali tahlil qilish qobiliyatidir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalarning mustaqil fikrlashini shakllantirish kelajakda ularning ta'lim olishi, kasb tanlash va jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun muhim asos hisoblanadi².

Bolaning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqatga kirishib kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida shakllana boradi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operasiyalaridan o'rinli foydalanadi. (Ularni taqqoslaysidi, oydinlashtiradi, guruhlarga ajratadi, haqli xulosa chiqarishga harakat qiladi). Shunday qilib unda fikrlash bosqichi paydo bo'лади³.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish savodxonligi, tabiiy fan darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda⁴.

O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala

² Inoyatova D. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qibiliyatlarini rivojlantirish // Ta'limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo'yilgan qadam xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. 2024. B. 103.

³ Qodirova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // scientific progress journal 2024. B. 465.

⁴ Ne'matullayeva M., Jumanova Sh. Boshlang'ich sinflarga ta'lim berish jarayonida zamонавий метод ва vositalarning ahamiyati. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 581–583.

madaniyati shakllanadi. Muhimi, didaktik o‘yinlar jarayonida bolada o‘z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga, o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rganadi, mustaqil fikrlar bildira boshlaydi⁵.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi usullardan biri - mustaqil ish metodidir. Nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki umuman ta’lim sohasida keng qo‘llaniladigan o‘quvchilarning mustaqil ishlari ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o‘quvchilarning bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarining yechimini topish jarayonida shakllanadi.

Rekonstruktiv mustaqil ishlarni o‘tkazish jarayonida o‘quvchilar muammoni hal etish uchun avval olgan bilimlarini faqat hayolda qayta tiklabgina qolmay, balki muammoni hal etish yo‘llarining mavjud umumiylar tushunchalardan qaysi biriga mos kelishini o‘rganadilar. Bu tipdagi mustaqil ishlarga bayon, shaxsni o‘zgartirib hikoya qilish, tahlil qilish, test topshiriqlari, tarqatma materiallar asosidagi mustaqil ishlar misol bo‘la oladi.

Bayon. Bayon o‘quvchilarning yozma mustaqil ish turlaridan biri bo‘lib, matn mazmunini ma’lum tayyorgarlikdan so‘ng qayta yozish jarayonida o‘quvchilarning nutqi boyiydi, savodxonlik darajasi o‘sadi, mustaqil fikrlashga o‘rganadi⁶.

Boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlanadigan darsliklar ham matn oxirida beriladigan mashqlar, savol va topshiriqlar asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘llashi lozim. Masalan, “”She’rni kim aytayapti?”, “She’rga siz qanday qo‘shimcha qila olasiz?”, “Hikoya (yoki ertak) qahramoni bilan do‘stlashishni xohlaysizmi?”, “Hikoya qahramoniga qanday maslahat berasiz?”, “Ertak voqealari ichida bo‘lishni xohlaysizmi?”, “Unda kim bo‘lib qatnashishni xohlaysiz?” kabi savollar, “Matnni qismlarga bo‘ling va har bir qismga sarlavha qo‘ying”, “O‘qituvchi yordamida matn rejasini tuzing”, “Reja asosida matnni qayta hikoya qiling”, “Matndagi qahramonlarni almashtirib qayta hikoya qiling” va boshqa shu kabi topshiriqlarni berish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi⁷.

Barchamizga ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchi shaxsi shakllanishining poydevori hisoblanadi. Chunki bu davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham alohida e’tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila

⁵Qodirova M. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda zamонави та’лим texnologiyalaridan foydalanish // O‘zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi, 2024. B. 124.

⁶ To‘lakova X., Beknazarova X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishda mustaqil ishlarning o‘rnini //

⁷ Qodirova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish // Scientific progress journal. 2024. B. 465.

boshlaydi, ta'limga olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. "4K" modeli ta'limga tizimiga zamonaqiy yondashuv bo'lib, zamonaqiy ta'limga tizimida 4K modelidan foydalanishda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashga, mustaqil fikrlashga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyni o'z ichiga oladi.

Kollaborasiya – hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda o'quvchilarning hamkorlikda ishslashlari, birovning g'oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga asoslangan, o'zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishni shakllantirishdir.

Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati, o'quvchilar o'zining mustaqil fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganishdir.

Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash insonni mashina va sun'iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tanqidiy fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o'zlashtirmaslik, har doim o'z fikriga ega bo'lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi⁸.

Boshlang'ich sinf darslarida 4K modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi; o'quvchilarga kognitiv (atrof-olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi) axborot beradi; o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi va hokazo.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday savol qo'ygan edilar. "Shu joyda yana bir oxir savolga duch kelamiz: bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi. Umuman maktablarda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rnatiladimi? Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'limga samarasini past bo'lishi muqarrar". Birinchi Prezident o'z fikrini davom ettirib, o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishi katta boylik ekanligi, o'qituvchilarning esa asosiy vazifalari o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini yaxshi

⁸ Xodiyeva G. Boshlang'ich ta'limga 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari // "Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral, B. 581.

tushunishsa-da, biroq tajribada unga rioya qilmasliklarini ham ta'kidlab o'tadi. Bundan shu narsa yaqqol ko'rindiki, har bir fanning o'ziga xosligidan kelib chiqib, o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ochib berish bugungi kun uchun juda muhimdir⁹.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, o'quvchilarining boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq turli didaktik o'yinlar, vositalar, metod hamda usullar orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish kelajakda boshqalarga fikran qaram bo'lishidan saqlash, o'z hayot yo'lini mustaqil yarata olish, boshqarishga yordam beradi. Bugungi tahlikali zamonda erkin, demokratik va farovon jamiyat qurish uchun yosh avlodni ta'limning ilk bosqichlaridan mustaqil fikrlashga o'rgatish muvafaqqiyatimiz asosi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonova N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Educational Research in Universal Sciences., 2023. B. 208.
2. Gaffarov Y., Nigmatov A. Mustaqil fikrlashni shakllantirish metodlari // "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr B. 665.
3. Inoyatova D. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish // Ta'limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo'yilgan qadam xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. 2024. B. 103.
4. Ne'matullayeva M., Jumanova Sh. Boshlang'ich sinflarga ta'lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 581–583.
5. Qodirova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Scientific progress journal. 2024. B. 465.
6. Qodirova M. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024. B. 124.
7. To'lakova X., Beknazarova X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishda mustaqil ishlarning o'rni. 2023. B. 128.
8. Xodiyeva G. Boshlang'ich ta'limda 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari // "Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi 2024-yil 20-fevral, B. 581.

⁹ Gaffarov Y., Nigmatov A. Mustaqil fikrlashni shakllantirish metodlari // "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr B. 665.